Qabul qilindi: 13-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 15-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 17-noyabr 2026-yil

Jinoyat protsessida ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqi: protsessual kafolatlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari

Ismoilova Sitora Ilhomjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Jinoyat qonunchiligini qo‘llash nazariyasi va amaliyoti” yo‘nalishi magistranti
E-mail: ibrokhimovasitoraxon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola jinoyat protsessining ushlab turish bosqichida himoya funksiyasining protsessual kafolatlari va amalga oshirilishining o‘ziga xos jihatlarini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-protsessual kodeksi hamda xalqaro standartlar asosida tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada tavsif va qiyosiy usullardan foydalanilgan bo‘lib, qonun hujjatlari, huquqiy va ilmiy adabiyotlar, olimlarning fikrlari o‘rganilgan. Ushlab turish jarayonida jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsning himoya huquqini ta’minlash va uning boshqa protsessual huquqlari surishtiruvchi, tergovchi, prokuror hamda sudning qonunda belgilangan majburiyatlari bilan birgalikda ta’minlanishiga urg‘u berilgan bo‘lib, tadqiqotning xulosa qismida jinoyat protsessining ushlab turish bosqichida shaxsning himoya huquqini ta’minlashni takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy taklif va mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ushlab turish, jinoyat protsessi, gumon qilinuvchi, himoya huquqi, himoyachi, protsessual kafolatlar, yuridik yordam, tibbiy ko‘rik, xalqaro standartlar.

Shaxs erkinligi va daxlsizligi demokratik huquqiy davlatning asosiy qadriyatlaridan biri bo‘lib, uni cheklash faqat qonunda belgilangan holatlar asosida, shu bilan birga himoyalanish huquqi kafolatlari bilan birga amalga oshiriladi. Demokratik islohotlar davomida mamlakatimizda jinoyat-protsessual munosabatlarini amalga oshirishda jinoyat protsessiga jalb etiladigan shaxslarning huquq va erkinliklarini so‘zsiz ta’minlash maqsadida sud-tergov amaliyotini xalqaro standartlarga moslashtirishga qaratilgan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-

sentabrdagi PF-158-son Farmoniga asosan tasdiqlangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 86-maqsadi sifatida “Sud hokimiyati mustaqilligini kuchaytirish va uning faoliyatida ochiqlikni ta’minlash orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish”[1] ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 27-moddasida hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi hamda shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilangan. 29-moddasida esa har kimga malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishi, qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko‘rsatilishi, har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ushlanganida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda cheklangan paytdan e’tiboran o‘z tanloviga ko‘ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega[2] ekanligi qayd etilgan.

Islohotlar natijasida ushlab turish muddatining 72 soatdan 48 soatga qisqarishi jinoyat protsessining ushlab turish bosqichida shaxs huquqlarini himoya qilishda muhim qadam bo‘ldi. Biroq muddatning qisqartirilishi o‘z-o‘zidan himoya huquqining real ta’minlanishini kafolatlamaydi. Bunga shaxsga belgilangan huquq va majburiyatlarining o‘z vaqtida tushuntirilishi, himoyachining protsessning dastlabki bosqichlarida ishga kirishishi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining qonunda belgilangan majburiyatlarini to‘la ado etishi va jarayonning samarali nazorat qilinishi orqali erishiladi. Shu bois mazkur maqolada ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqi tushunchasi va huquqiy asoslari, uni ta’minlashning protsessual kafolatlari hamda amaliyotdagi muammolar tahlil qilinib, qonunchilikni takomillashtirishga oid takliflar ilgari suriladi.

Ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqi tushunchasi va huquqiy asoslari haqida so‘z yuritar ekanmiz, dastlab “himoya huquqi” atamasiga ta’rif berib o‘tamiz. “Himoya” tushunchasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ikki xil ma’nodagi ta’rif

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 12 сентябрдаги «Ўзбекистон –2030 стратегияси тўғрисида» ги ПФ–158 Фармон
[2] www.lex.uz

berilgan: birinchi holatda “yordam, qo‘llab-quvvatlash, homiylik” ma’nosida kelsa, ikkinchi holda “sudlanuvchi tarafini olib qilinadigan xatti-harakat, aytiladigan fikr-mulohaza, oqlovchi tomon” degan ta’riflar berilgan[3].

V.I. Dal esa “himoya” so‘zi “mudofaa, qo‘riqlash, qalqon, yon bosish” ma’nolarini anglatishini ta’kidlagan[4].

R.R. Valyulinning fikriga ko‘ra, jinoyat protsessida “himoya” tushunchasi faqat jinoiy javobgarlikka tortilayotgan shaxs bilan bog‘liq torroq ma’noda qo‘llaniladi. Shu ma’noda “himoya” tushunchasi uchta protsessual funksiyadan biri, ya’ni himoyalash, ayblash, ishni mohiyatan hal qilish ma’nolarini anglatadi[5].

D.V. Sharapova himoya deganda ayblanuvchi, shuningdek uning himoyachisining jinoiy ta’qibga qarshi ongli, maqsadli faoliyatini tushunadi[6].

B.N. Rashidov “himoya” tushunchasini “ayblovni rad etish va ayblanuvchining aybsizligini aniqlash yoki javobgarligini yengillashtirishga qaratilgan o‘ziga xos protsessual faoliyat” sifatida ta’riflagan[7].

D.M. Choriyevaning fikriga qaraganda, himoya – yuzaga kelgan gumon, e’lon qilingan ayblovni rad etish yoki javobgarlikni yengillashtirish maqsadida himoya tarafi tomonidan gumonni yuzaga keltiruvchi holatlarga e’tibor qaratish, jinoyat sodir etilganligiga oid ma’lumotlarning, jinoyat ishini qo‘zg‘atish uchun asos bo‘lgan holatlarning asosliligini tekshirish, dalillar to‘plash va ularni taqdim etish asosida isbot qilishni amalga oshirish, tergovga qadar tekshiruv organi mansabdor shaxsining, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari (harakatsizligi) va qarorlari ustidan shikoyat berishdan iborat bo‘lgan hamda o‘ziga nisbatan tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilayotgan shaxs, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki mahkumning huquq va manfaatlarini

[3] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “H” harfi / A.Madvaliyev tahriri ostida. – T., 2020. – B. 66.
[4] Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка // URL: https://www.prlib.ru/item/457657
[5] Валюлин Руслан Рашитович ПРОБЛЕМЫ УЧАСТИЯ АДВОКАТА-ЗАЩИТНИКА В ПРОЦЕССЕ ДОКАЗЫВАНИЯ ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ // Юридическая наука. 2021. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-uchastiya-advokata-zaschitnika-v-protsesse-dokazyvaniya-po-ugolovnomu-delu (дата обращения: 25.03.2026).
[6] Шарапова Д.В. Участие защитника в суде апелляционной инстанции: Дис. … д-ра юрик наук. - М., 2017. – С.18.
[7] Rashidov B.N. Jinoyat-protsessual huquq. – T: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – B. 31

ifodalashga, noqonuniy ravishda buzilgan huquqlarini tiklashga qaratilgan protsessual faoliyatdir[8].

Mazkur fikrlardan anglashimiz mumkinki, jinoyat protsessida himoya tushunchasi alohida ahamiyat kasb etib, asosan, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkum yoki ularning himoyachisi tomonidan aybsizlikni isbotlash yoxud javobgarlikni yengillashtirishga, shuningdek buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan protsessual faoliyat tushuniladi. Yuqorida qayd etilgan holatlar ushlab turilgan shaxsga nisbatan ham to‘liq qo‘llanadi, chunki ushlab turish chog‘ida shaxs, qoida tariqasida, gumon qilinuvchi maqomiga ega bo‘ladi.

O‘z navbatida himoya huquqi ikki o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismdan iborat. Birinchisi – shaxsiy himoya, ya’ni shaxsning o‘zi tomonidan huquqlarini amalga oshirishi (tushuntirish berishdan bosh tortish, o‘z huquqlari haqida axborot olish, e’tirozlar bildirish). Ikkinchisi – professional yuridik yordam, ya’ni himoyachi (advokat) ishtirokida himoyalanish.

Shaxsning himoyalanish huquqi konstitutsiyaviy normalar asosida tasdiqlangan bo‘lib, sud qarorisiz shaxsni ushlab turishning konstitutsiyaviy chegarasi 48 soat etib belgilangan. Konstitutsiyaviy sudning ma’muriy tartibda ushlab turishga oid 2026-yil 22-sentabrdagi Qarori bu chegara davlat organi uchun imtiyoz emas, balki inson erkinligini himoya qiluvchi konstitutsiyaviy kafolat ekanini yana bir bor tasdiqladi: 48 soat ichida sud qarori olinishi yoki shaxs qo‘yib yuborilishi shart.

Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksining 27-bobi ushlab turishning asoslari, tartibi, muddatlari va ushlab turilgan shaxsning huquqlarini belgilaydi. Ma’lumki, ushlab turish jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar ham, jinoyat ishi qo‘zg‘atilganidan keyin ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan protsessual chora hisoblanadi va ushlab turilgan shaxsning professional yuridik yordam olish huquqi har ikki holatda ham birday ta’minlanadi.

Bundan tashqari, ushlab turilgan shaxsning yuridik yordam olish huquqi xalqaro huquqiy hujjatlarda ham o‘z aksini topgan. Jumladan, Fuqarolik va siyosiy huquqlar

[8] Чориева Д.М. Ишни судга қадар юритишда ҳимоячи ҳуқуқларини кенгайтириш масалалари., ю.ф.ф.д.,(PhD) диссер. – т.2021.

to‘g‘risidagi Xalqaro pakt (9 va 14-moddalar)[9], Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi (5 va 6-moddalar, Yevropa inson huquqlari sudi amaliyoti)[10], BMTning “Har qanday shaklda hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillari to‘plami”[11] (1988) va “Advokatlarning roli to‘g‘risidagi asosiy tamoyillar”[12] (1990) ushlab turilgan shaxsning yuridik yordamdan foydalanish huquqini e’tirof etadi. Xususan, advokatlar ishtiroki bo‘yicha BMT tamoyillari hibsga olingan yoki ushlab turilgan shaxs yuridik maslahatchiga murojaat qilish imkoniyati bilan eng kechi hibsga olingan paytdan boshlab 48 soat ichida ta’minlanishi kerakligini belgilaydi. Milliy konstitutsiyaviy norma esa bu huquqni shaxsning harakatlanish erkinligi amalda cheklangan paytdan boshlab kafolatlaydi, ya’ni xalqaro minimumdan yuqori talabni belgilaydi.

Ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqini ta’minlashning dastlabki qadami shaxs ushlab turilganda unga ushlab turish asoslari, gumon mohiyati va qonunda belgilangan huquqlari tushuntirilishi hisoblanadi. Himoyachi ishtiroki esa himoya huquqining markaziy kafolatidir. JPKning 224-moddasiga ko‘ra, ushlab turilgan shaxsga advokatga yoki yaqin qarindoshiga telefon qilish yoki xabar berish, himoyachiga ega bo‘lish, ko‘rsatuvlar berishni rad etishga bo‘lgan protsessual huquqlari tushuntirilishi lozim.

Fikrimizcha, amaliyotda huquqlarning tushuntirilishi ko‘pincha rasmiy tarzda, bayonnomadagi imzo bilan cheklanib qoladi. Bu shaxsning o‘z huquqlarini haqiqatan anglashiga kafolat bermaydi. Shu bois tushuntirish haqiqatan tushunilganini ta’minlash maqsadida JPKning 224-moddasi 8-qismini “hamda gumon qilinuvchiga uning huquq va majburiyatlari aks etgan yozma hujjat taqdim etiladi” jumlasi bilan to‘ldirish lozim. Shuningdek, shaxsning tibbiy huquq kafolatlarini ta’minlash maqsadida mazkur moddani quyidagi 10-qism bilan to‘ldirish taklif etiladi:

“Bunda tibbiyot shifokori ushlangan shaxsning o‘zi, qarindoshlari, yaqinlari yoki vaqtincha saqlash hibsxonasi tasarrufida bo‘lmagan tibbiy muassasalar tomonidan taklif etilishi yoki tibbiy ko‘rikni o‘tkazuvchi xodimlar tarkibiga gumon qilinuvchining xohishiga

[9] www.lex.uz
[10] https://www.coe.int/ru/web/compass/the-european-convention-on-human-rights-and-its-protocols
[11] https://www.ohchr.org/sites/default/files/bodyprinciples.pdf
[12] https://www.ohchr.org/sites/default/files/bodyprinciples.pdf

ko‘ra bu turdagi faoliyat bilan shug‘ullanishga vakolatli bo‘lgan aniq bir shaxs kiritilishi mumkin”.

Shunday qilib, ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqi normativ jihatdan keng mustahkamlangan bo‘lsa-da, uning samaradorligi amaliyotda huquqlarning mazmunan tushuntirilishiga, tibbiy ko‘rikning mustaqilligiga va himoyachining dastlabki daqiqalardan ishtirokiga bog‘liq. Taklif etilgan o‘zgartirishlar aynan shu bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan:

– tushuntirishning rasmiyatchilikka aylanishini oldini olib, shaxsga huquqlarini o‘zi o‘qib chiqish imkonini beradi,

– tibbiy ko‘rik natijalarining mustaqilligi va ishonchliligini oshiradi.

Olib borilgan tahlil ushlab turish bosqichida himoya huquqining formal e’tirof etilishi bilan uning real ta’minlanishi o‘rtasida farq mavjudligini ko‘rsatdi. Xulosa qilib aytganda, ushlab turilgan shaxsning himoyalanish huquqini ta’minlashga faqat normativ mustahkamlash bilan emas, balki huquqlarni mazmunan tushuntirish, himoyachining erta ishtiroki, mustaqil tibbiy ko‘rik va samarali nazorat mexanizmlarini birgalikda amalga oshirish orqali erishiladi. Taklif etilgan o‘zgartirishlar bu mexanizmlarni kuchaytirib, jinoyat protsessida shaxs erkinligi va daxlsizligi kafolatlarini “O‘zbekiston–2030” strategiyasida belgilangan odil sudlov maqsadlariga muvofiq mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston–2030” strategiyasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ma’muriy tartibda ushlab turishga oid 2026-yil 22-sentabrdagi Qarori.

5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi Xalqaro pakt.

6. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa konvensiyasi.

7. BMT. Har qanday shaklda hibsga olingan yoki qamoqda saqlanayotgan barcha

shaxslarni himoya qilish tamoyillari to‘plami, 1988.

8. BMT. Advokatlarning roli to‘g‘risidagi asosiy tamoyillar, 1990.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “H” harfi / A.Madvaliyev tahriri ostida. – T., 2020. – B. 66.

10. Валюлин Руслан Рашитович ПРОБЛЕМЫ УЧАСТИЯ АДВОКАТА-ЗАЩИТНИКА В ПРОЦЕССЕ ДОКАЗЫВАНИЯ ПО УГОЛОВНОМУ ДЕЛУ // Юридическая наука. 2021. №7. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-uchastiya-advokata-zaschitnika-v-protsesse-dokazyvaniya-po-ugolovnomu-delu (дата обращения: 25.03.2026).

11. Шарапова Д.В. Участие защитника в суде апелляционной инстанции: Дис. … д-ра юрик наук. - М., 2017. – С.18.

12. Rashidov B.N. Jinoyat-protsessual huquq. – T: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019. – B. 31.

13. Чориева Д.М. Ишни судга қадар юритишда ҳимоячи ҳукукларини кенгайтириш масалалари., ю.ф.ф.д.,(PhD) диссер. – т.2021.

